

ЖУРНАЛ МЕДИЦИНА И ИННОВАЦИИ

JOURNAL OF
MEDICINE *and*
INNOVATIONS

Номер ISSN 2181-1873 (Online)

4(8)

ДЕКАБРЬ, 2022

WWW.TSDI.UZ

КЛИНИКО-НЕВРОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ МИАСТЕНИИ

**ФАРМАКОКИНЕТИКА АНТИБИОТИКОВ ПРИ ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНЫХ
ОГНЕСТРЕЛЬНЫХ РАНАХ**

**SCIENTIFIC SUBSTANTIATION OF ORGANIZATIONAL FORMS
OF ACTIVITY OF NURSING STAFF OF REHABILITATION DEPARTMENTS**

**НАРУШЕНИЯ МИКРОЭКОЛОГИИ И МЕСТНЫХ ФАКТОРОВ
ЗАЩИТЫ ПОЛОСТИ РТА У БОЛЬНЫХ ВИРУСНЫМ ГЕПАТИТОМ В**



<p>ТРАНСЛОКАЦИИ В ЭКСПЕРИМЕНТЕ</p> <p>Нуралиев Н.А., Муротов Н.Ф.</p>		<p>TRANSLOCATION</p> <p>Nuraliyev N.A., Murotov N.F.</p>
<p>НАРУШЕНИЯ МИКРОЭКОЛОГИИ И МЕСТНЫХ ФАКТОРОВ ЗАЩИТЫ ПОЛОСТИ РТА У БОЛЬНЫХ ВИРУСНЫМ ГЕПАТИТОМ В</p> <p>Мухамедов Б.И.</p>	<p><u>343</u></p>	<p>VIOLATIONS OF MICROECOLOGY AND LOCAL FACTORS OF PROTECTION OF THE ORAL CAVITY IN PATIENTS WITH VIRAL HEPATITIS B.</p> <p>Mukhamedov B.I.</p>
<p>УРОВЕНЬ И СТРУКТУРА ЗАБОЛЕВАЕМОСТИ ДОШКОЛЬНИКОВ Г. АНДИЖАНА</p> <p>Маматкулов Б., Отажонов И.</p>	<p><u>351</u></p>	<p>INCIDENCE LEVEL AND STRUCTURE OF PRESCHOOL CHILDREN IN ANDIJAN CITY</p> <p>Mamatkulov B., Otazhonov I.</p>
<p>РАСПРОСТРАНЁННОСТЬ И ИНТЕНСИВНОСТЬ ЗАБОЛЕВАНИЙ ПАРОДОНТА У РАБОЧИХ НЕФТЕПЕРЕРАБАТЫВАЮЩЕЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ.</p> <p>Бекжанова О.Е., Адизов М.А., Астанакулова М.М., Касимова Г.И.</p>	<p><u>357</u></p>	<p>PREVALENCE AND INTENSITY OF PARODONTAL DISEASES IN WORKERS IN THE OIL REFINING INDUSTRY.</p> <p>Bekzhanova O.Ye., Adizov M.A.</p>
<p>МИКРОБИОЛОГИЧЕСКИЕ ПОКАЗАТЕЛИ РОТОВОЙ ЖИДКОСТИ В РАЗЛИЧНЫЕ СРОКИ ПОСЛЕ ДЕНТАЛЬНОЙ ИМПЛАНТАЦИИ ИМПЛАНТАТОМ “IMPLANT.UZ”</p> <p>Мун Т., Хабилов Н., Усмонов Ф., Ким В.</p>	<p><u>365</u></p>	<p>MICROBIOLOGICAL INDICATORS OF THE ORAL FLUID IN DIFFERENT PERIOD AFTER DENTAL IMPLANTATION WITH THE IMPLANT “IMPLANT.UZ”</p> <p>Moon T., Khabilov N., Usmonov F., Kim V.</p>
<p>ИЗГОТОВЛЕНИЕ ИСКУССТВЕННЫХ КОРОНОК ВРЕМЕННОГО ПРИМЕНЕНИЯ МЕТОДОМ 3D ПЕЧАТИ</p> <p>Нуриева Н.С., Ризаева С.М., Шнайдер С.Д., Ризаева С.Н.</p>	<p><u>375</u></p>	<p>PRODUCTION OF ARTIFICIAL CROWNS FOR TEMPORARY USE BY 3D PRINTING</p> <p>Nurieva N.S., Rizaeva S.M., Schneider S.D., Rizaeva S.N.</p>
<p>ВЫЯВЛЕНИЕ ДЕРМАТОЛОГИЧЕСКИХ ЗАБОЛЕВАНИЙ У ЛИЦ С ПСИХОНЕВРОЛОГИЧЕСКИМИ НАРУШЕНИЯМИ И РОЛЬ ПРУРИГО</p> <p>Саиткулов Э.Х., Нурматова И.Б.,</p>	<p><u>382</u></p>	<p>DETECTION OF DERMATOLOGICAL DISEASES IN PERSONS WITH PSYCHONEUROLOGICAL DISORDERS AND THE ROLE OF PRURIGO</p> <p>Saitkulov E.H., Nurmatova I.B.,</p>

6. Al-Ali J. Hepatitis C virus and the skin. *Hepatogastroenterology*. 2011, vol 58. P 880-886
7. Свечникова Е.В. Дерматологические аспекты хронического вирусного гепатита. *Современные аспекты проблемы*. 2006. Т 2, с 43-47
8. Sarapaty S.K. Dermatologic diseases and the liver. *Chlin Liver Dis*. 2011, vol 15, №1 p 165-182
9. Мухамедов И.М. Монография “Клиник микробиология”. Ташкент, 610 стр.
10. Ефимович О.И. Способ забора материала из полости рта у стоматологических больных. *Лаб.дело*, 2001, №5, с 11-15
11. Алиев Ш.Р. Способ определения титра лизоцима в биологических жидкостях. *Авторское свидетельство*. 2005, Т., 15 с
12. Даминова Ш.Б. Автореферат 2018. Клиника, лечение, прогноз гепатита В у детей.
13. Воробьев А.А. Иммунологические аспекты вирусных гепатитов. *ЖМЭИ*, 2003, №2, с 59-64.

УДК: 616-053.37:612.018

ANDIJON SHAHAR MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING KASALLANISH DARAJASI VA STRUKTURASI

Baxromjon Mamatqulov¹, Ikromjon Otajonov²

¹Toshkent tibbiyot akademiyasi Jamoat sog‘lig‘ini saqlash maktabi direktori, t.f.d., professor

²Andijon davlat tibbiyot instituti Umumiy gigiena kafedrasasi assistenti

INCIDENCE LEVEL AND STRUCTURE OF PRESCHOOL CHILDREN IN ANDIJAN CITY

Bakhromjon Mamatkulov¹ Ikromjon Otajonov²

¹director of the School of Public Health of the Tashkent Medical Academy, DcS., professor

²Andijan State Medical Institute Assistant Professor of General Hygiene Department

УРОВЕНЬ И СТРУКТУРА ЗАБОЛЕВАЕМОСТИ ДОШКОЛЬНИКОВ Г. АНДИЖАНА

Бахромжон Маматкулов¹, Икромжон Отажонов²

¹директор Школы общественного здравоохранения Ташкентской медицинской академии,
д.м.н., профессор

²ассистент кафедры общей гигиены Андижанского государственного медицинского
института

ANNOTATSIYA

Bolalarga tibbiy-ijtimoiy yordamni takomillashtirish, profilaktik ishlar samaradorligini oshirish negizida turli yosh guruhidagi bolalar kasallanishini o‘rganish va tahlil qilish va shular asosida bolalar salomatligini saqlash va muhofaza qilishga qaratilgan choralar ishlab chiqish kerakligini taqozo etadi. Tadqiqotda maktabgacha yoshdagi bolalar kasallanishlarini chuqur tahlil qilindi, sabablarini o‘rganildi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, Andijon shahar yetti yoshgacha bo‘lgan bolalar kasallanishi yoshga bog‘liq bo‘lib, yosh orta borishi bilan kasallanish darajasi kamayishi qayd etildi. Kasallanishlar strukturasi barcha yoshda nafas olish a‘zolari kasalliklari yetakchilik qiladi. Andijon viloyati shahar va qishloqlarida 7 yoshgacha bolalar kasallanishlarini murojaatlar asosida o‘rganish shu xududga xos bolalar kasallanish xususiyatlarini ochib bergan bo‘lsa, tibbiy ko‘riklarni tashkil etish va o‘tkazish oldin aniqlanmagan, klinik belgilarsiz kechuvchi, davolash - profilaktika muassasalarida ro‘yxatga olinmagan, yangi surunkali kasalliklarni aniqlash imkonini berdi.

Kalit soʻzlar. Bolalar, kasallanish, maktabgacha yoshdagi bolalar, shahar bolalari, kasallanish darajasi, sabablari

ABSTRACT

It is necessary to study and analyze the diseases of children of different age groups on the basis of improvement of medical and social assistance to children, improvement of effectiveness of preventive activities, and on the basis of these, measures aimed at maintaining and protecting children's health should be developed. In the study, diseases of preschool children were analyzed in depth, and their causes were studied. The obtained results showed that the incidence of children under seven years of age in Andijan depends on age, and the incidence rate decreases with age. In the structure of diseases, diseases of respiratory organs are leading at all ages. If the study of children's diseases under 7 years of age in the cities of Andijan region on the basis of appeals revealed the characteristics of children's diseases specific to this region, then the children who were not identified before the organization and conduct of medical examinations, without clinical symptoms, were registered in treatment-preventive institutions. allowed to identify new chronic diseases.

Keywords. Children, morbidity, children of preschool age, urban children, level of morbidity, causes

АННОТАЦИЯ

Совершенствования медико-социальной помощи детям, повышения эффективности профилактических мероприятий направленных на сохранение и охрану здоровья, важное место имеет изучение заболеваемости детей разных возрастных групп в регионах. В ходе исследования были углубленно проанализированы заболевания детей дошкольного возраста, изучены их причины. Полученные результаты показали, что заболеваемость детей до семи лет в Андижане зависит от возраста, с возрастом показатель заболеваемости снижается. В структуре заболеваний лидируют болезни органов дыхания во всех возрастных группах. При изучении заболеваемости детей до 7 лет в городах Андижанской области на основании обращений выявлены особенности детских болезней, характерных для данного региона, медицинские осмотры позволили выявить новые хронические заболевания без клинических симптомов детей не выявленные до организации и проведения диспансеризации, состоявших на учете в лечебно-профилактических учреждениях.

Muammoning dolzarbligi. Turli yosh guruhlaridagi bolalarning kasallanish darajasi va tavsifini, uning oʻzgarish tendensiyalarini bilish sogʻliqni saqlash muassasalari faoliyatida ustivor oʻrinni egallashi lozim boʻlgan profilaktik tadbirlar oʻtkazilishi uchun katta ahamiyatga egadir [2,3,4].

Kasallanish toʻgʻrisidagi maʼlumotlar faqat bolalar salomatligi toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni berib qolmay, balki shu xududda koʻrsatilayotgan tibbiy yordamning sifati va samaradorligini ham koʻrsatib beradi. Bolalar kasallanishi orasidagi farq faqatgina xududga xosligi bilan emas, balki kasallanishlarni aniqlash va roʻyxatga olishda materiallar yigʻish va ularni xisoblash usullaridagi, shuningdek davolash-profilaktika muassasining jihozlanishi, kadrlar bilan toʻliq taʼminlanganligi, vrachlar kasb mahorati, tibbiy xizmatning ommabopligi va boshqa omillarga ham bogʻliqdir.

Tadqiqotning maqsadi. Andijon shahar maktabgacha yoshdagi bolalar kasallanishlarini (murojlatlar, tibbiy koʻriklar asosida) chuqur tahlil qilish.

Material va tadqiqot usullari. Tadqiqot Andijon shahrida o‘tkazildi. Bolalar kasallanishlarini ayrim yosh guruhlari va jinslar bo‘yicha darajasining qonuniyatlari, sabablarini o‘rganish va taqqoslash uchun bitta kalendar yilida olingan ma’lumotlar representativ, ishonchli ma’lumotlarni bermasligini e’tiborga olgan holda 7 yoshgacha bo‘lgan shahar va qishloq bolalarining bolalarning kasallanish ko‘rsatkichlari kalendar yili hisobidan emas, balki hayot kechirgan yili yuzasidan o‘rganib chiqildi. Buning uchun Dalillarga asoslangan tibbiyotning usullaridan biri analitik tadqiqot usuli xususan, uzoq muddatli retroprospektiv kogort usulidan foydalandik. Uzoq muddatli retroprospektiv kogort usulida 3 yoshga to‘lgan bolalar ma’lumotlari retrospektiv asosda tahlil qilingan bo‘lsa, 3 yoshdan 7 yoshgacha so‘ng prospektiv dinamikada o‘rganildi. Buning uchun 2019 yilda 3 yoshga to‘lgan bolalar tanlab olindi. Ishonchli hamda representativ ma’lumotlarni olish maqsadida, eng avvalo general majmua soniga bog‘liq xolda tanlab olingan majmua sonini belgilab olish lozim. General majmuadan bir qism tanlangan majmuani hosil qilish uchun “General majmua aniq bo‘lganda, tadqiqot natijalari 5% xatolikdan oshmaydigan kuzatuv birliklari soni” jadvalidan foydalanildi (Iskandarov T.I., Mamatqulov B.M., 1994). Andijon shahrida 2019 yilda 3 yoshga to‘lgan bolalar soni 66 985 tani tashkil etdi. Jadvalga binoan general majmua soni 70000 bo‘lganda, yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan xatolik $\Delta 0,03=3\%$ dan oshmaganda 1091 nafar bola tanlab olinishi zarur. Biz Andijon shahridan 2019 yilda tug‘ilgan 1050 nafar bolani tanlab oldik. Buning uchun Andijon shahridagi 1-, 2-, 8-, 6- poliklinikalar “qush uyasi - uyalab tanlash” usulida tanlab olinib, ularga birlashtirilgan va 2019 yilda 3 yoshga to‘lgan 1050ta bolani (530ta o‘g‘il va 520ta qiz bola) tug‘ilgandan, to ular 7 yoshga to‘lguncha qadar dinamikada salomatligini kuzatish orqali o‘rgandik.

Olingan natijalar va ularning muhokamasi. Andijon shahrida 7 yoshgacha bolalar kasallanishini murojaatlar asosida o‘rganilganda kasallanishning eng yuqori darajasi bir yoshga to‘g‘ri kelganligi qayd etildi (mazkur yosh guruhidagi 1000 nafar bolaga nisbatan 602,9. Bolalar yoshining ortishi bilan kasallanish ko‘rsatkichlarining kamayishi bir qancha tadqiqotchilar tomonidan ham asoslab berilgan [1,3,4]. Bizning tadqiqotimiz natijalari ham bola kattalashgan sari murojaatlar asosida kasallanish ko‘rsatkichlarining kamayib borishini ko‘rsatib berdi, xususan, mazkur yosh guruhidagi 1000 nafar bolaga nisbatan 2 yoshda 381,9; 3 yoshda 310,5; 4 yoshda 320,0; 5 yoshda 327,6; 6 yoshda 273,3; 7 yoshda 220,0ni tashkil qildi (1 jadval).


1. jadval

Yetti yoshgacha bo‘lgan bolalar kasallanishi (mazkur yosh guruxidagi 1000 nafar bolaga nisbatan)

Yoshi	Kasallanish		Haqiqiy “chin” kasallanish
	Murojaatlar asosida	Tibbiy ko‘rik natijasida	
0-1	602,9±15,1	120,0±10,0	722,9±13,8
2	381,9±14,9	52,3±6,8	434,2±15,2


3	310,5±14,2	68,5±7,7	379,0±14,9
4	320,0±14,2	73,3±8,0	393,3±15,0
5	327,6±14,4	179,0±11,8	506,6±15,4
6	273,3±13,7	229,5±12,9	502,8±15,4
7	270,0±13,5	267,6±13,6	537,6±15,3
O'rtacha	355,2±14,1	141,4±10,7	496,5±15,4

O'tkazilgan tibbiy ko'riklar asosida olingan natijalarda buning aksini ko'rish mumkin, ya'ni bolalar kattalashgan sayin (bir yoshdan keyin) tibbiy ko'rikda aniqlangan kasalliklar ulushi ortib borishi qayd qilindi. Andijon shahar 7 yoshgacha bo'lgan bolalar o'rtacha haqiqiy "chin" kasallanish ko'rsatkichining qariyb 40%i tibbiy ko'riklar natijasida aniqlangan (1 rasm). 1. rasmdan ko'rinib turibdiki, bolalar hayotining 5-, 6- va 7-yilida tibbiy ko'riklarda aniqlangan kasalliklar ulushi mos ravishda 54,6%, 83,9% va 99,1%ni tashkil qildi. Aynan bolalar hayotining shu davrlarida tibbiy ko'riklarni tashkil qilish va o'tkazish, bolalar organizmdagi surunkali kasalliklarni aniqlash va ularning oldini olishda muhim ahamiyatga egadir.



1. rasm. Murojaatlar va tibbiy ko'rik natijasida aniqlangan kasalliklar ulushi (%)

7 yoshgacha bo'lgan bolalar haqiqiy "chin" kasallanish ko'rsatkichlari bolalar kattalashgan sayin kamayib borishi qayd etildi, biroq tibbiy ko'riklar asosida aniqlangan kasalliklar hisobiga bolalar hayotining 5-, 6- va 7-yillarida kasallanish ko'rsatkichining ortganligi qayd etildi. Eng yuqori kasallanish ko'rsatkichi bolalar hayotining birinchi yiliga to'g'ri keldi va u mazkur yoshdagi 1000 nafar bolaga nisbatan 722,9ni tashkil qildi (3.2. rasm).



2. rasm. 7 yoshgacha bo'lgan bolalar kasallanishi (mazkur yosh guruhidagi 1000 nafar bolaga nisbatan)

Bolalar kasallanishini jinsga nisbatan juda ko'p tadqiqotchilar o'z ilmiy ishlarida o'rganishgan va ularda qizlarga nisbatan o'g'il bolalarda kasallanish darajasi yuqoriligi qayd qilingan [1,2,4].

Bizning natijalarimiz bolalar hayotining barcha yillarida o'g'il bolalar kasallanishi qizlarnikiga nisbatan birmuncha yuqoriligi qayd qilindi. Ammo bolalar hayotining birinchi yilida qiz bolalar kasallanishi o'g'il bolalarnikiga nisbatan yuqoriligi aniqlandi (2 jadval). Har ikkala jinsning yoshi kattalashgan sayin murojaatlar asosida kasallanish ko'rsatkichlari kamayib borgan. 1 yoshda o'g'il bolalar kasallanishlari 586,7%, qizlar – 619,2%; 2 – yoshda o'g'il bolalar – 416,9%, qizlar – 339,6%; 3 yoshda esa 328,8 va 309,4%; 4 yoshda o'g'il bolalar – 320,7%, qizlar – 309,4%; 5 yoshda o'g'il bolalar – 324,5%, qizlar – 328,8%; 6 yoshda o'g'il bolalar – 288,6%, qizlar – 257,6%; 7 yoshda mos ravishda 260,3% va 248,1%; ga tengligi aniqlandi.

Jadval 2.

Yetti yoshgacha bo'lgan bolalarning jinslar bo'yicha kasallanishi (mazkur yosh guruxidagi 1000 nafar bolaga nisbatan)

Yosh	Kasallanish (%)				Haqiqiy "chin" kasallanish	
	Murojaatlar		Tibbiy ko'rik		o'g'il bola	qiz bola
	o'g'il bola	qiz bola	o'g'il bola	qiz bola		
0-1	586,7	619,2	96,2	144,2	682,9	763,4
2	416,9	339,6	54,7	50,0	471,6	389,6
3	328,8	288,6	65,3	73,1	394,1	361,7
4	320,7	309,4	84,9	61,5	405,6	370,9
5	324,5	328,8	160,3	198,1	484,8	526,9
6	288,6	257,6	213,2	246,1	501,8	503,7

7	260,3	248,1	232,1	303,8	492,4	551,9
O'rtacha	360,9	341,6	129,5	153,8	490,4	495,4

Tibbiy ko'rikda aniqlangan kasalliklar darajasi qiz bolalarda o'g'il bolalarga nisbatan yuqoriligi qayd etildi, jumladan 0-1 yoshda o'g'il bolalarda mazkur yoshdagi 1000 nafar bolalag nisbatan 96,2ni tashkil qilgan bo'lsa, qiz bolalarda 144,2 ga tengligi, 2 yoshda o'g'il bolalarda 54,7: qiz bolalarda 50,0; 3 yoshda mos ravishda 65,3; 73,1, 4 yoshda 84,9; 61,5, 5 yoshda 160,3; 198,1, 6 yoshda 213,2; 246,1, 7 yoshda esa 232,1; 303,8 ga tengligi aniqlandi.

Andijon shahri bolalarida tibbiy ko'riklarda aniqlangan kasalliklar birlamchi tibbiy sanitariya yordami muassasalariga qilingan murojaatlar asosida o'rganilgan kasalliklarga qaraganda 6 yoshda o'g'il bolalarda 73,8%, qiz bolalarda 95,5%, 7 yoshda esa mos ravishda 89,1% va 122,4%ga ko'pligi qayd etildi (3.jadval). Bu ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, bolalar hayotining 6 va 7 yoshlarida tibbiy ko'riklar o'tkazish, ular organizmidagi surunkali yashirin kechuvchi kasalliklarning aniqlanishiga yordam beradi. Bolalarning bu davrdagi surunkali kasalliklari ularning kelgusidagi jismoniy va jinsiy rivojlanishiga katta salbiy ta'sir ko'rsatadi, shuning uchun ham aniqlangan kasalliklarni davolash va shu bolalarni davriy tibbiy ko'riklardan o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

O'rtacha 7 yilda o'g'il bolalarda tibbiy ko'riklarda 35,8% kasalliklar qayd etilgan bo'lsa, qizlarda 45,1% kasalliklar aniqlangan.

Birlamchi tibbiy sanitariya yordami muassasalariga bolalar ko'proq o'tkir kasalliklar (o'tkir bronxit, gepatitlar, shikastlanishlar va boshq.) bilan murojaat qilishgan bo'lsa, tibbiy ko'riklarda asosan yashirin kechuvchi surunkali kasalliklar (anemiya, bo'qoq, gastrit va boshq.) aniqlangan. O'g'il bolalar ko'proq o'tkir ichak infeksiyalari, gepatit, gastroenterit, bronxit va shikastlanishlar qayd etilgan bo'lsa, qizlarda anemiya, bo'qoq, og'iz bo'shlig'i kasalliklari uchragan. Bizning fikrimizcha, kasallanishdagi jinslar orasidagi bunday tafovut o'g'il va qiz bolalar organizmining anatomo-fiziologik xususiyatlari, shuningdek o'g'il bolalarning qiz bolalarga nisbatan faolligi va harakatchanligi bilan ifodalanadi.

Xulosalar.

1. Andijon shahar yetti yoshgacha bo'lgan bolalar kasallanishi yoshga bog'liq bo'lib, yosh orta borishi bilan kasallanish darajasi kamayishi qayd etildi. Kasallanishlar strukturasi barcha yoshda nafas olish a'zolari kasalliklari yetakchilik qiladi.

2. Andijon viloyati shahar va qishloqlarida 7 yoshgacha bolalar kasallanishlarini murojaatlar asosida o'rganish shu xududga xos bolalar kasallanish xususiyatlarini ochib bergan bo'lsa, tibbiy ko'riklarni tashkil etish va o'tkazish oldin aniqlanmagan, klinik belgilersiz kechuvchi, davolash - profilaktika muassasalarida ro'yxatga olinmagan, yangi surunkali kasalliklarni aniqlash imkonini berdi.

Библиографические ссылки; References; Адабиётлар рўйхати:

1. *Avezova G.S. Uch yoshgacha bolalar salomatligi shakllanishining tibbiy –ijtimoiy qirralari (Toshkent shahri materiallari asosida). T.f.n. diss. avtoreferati, 2012 y., 24 bet*
2. *Девляшова О.Ф., Пелих Е.В., Дьяченко Т.С., Грибина Л.Н., Сабанов В.И. Состояние здоровья детского населения в крупной городской агломерации. // Вестник Волгоградского государственного медицинского университета. – 2015. – №1. – с. 125-129.*
3. *Mamatqulov B.M. Jamoat salomatligi va sog‘liqni saqlashni boshqarish. Darslik. –Toshkent - 2014 y., 574 bet*
4. *Маматқулов Б.М. Медико-социальные аспекты формирования, охраны и улучшения здоровья детей первых семи лет жизни (по данным специального когортного исследования городских и сельских детей Ферганской долины). Дисс..мед.доктора наук. -1997 г.*

УДК: 616.314.17-008.1 : 665.63.—039.4/5

**РАСПРОСТРАНЁННОСТЬ И ИНТЕНСИВНОСТЬ ЗАБОЛЕВАНИЙ ПАРОДОНТА
У РАБОЧИХ НЕФТЕПЕРЕРАБАТЫВАЮЩЕЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ.**

Бекжанова О.Е., Адизов М.А., Астанакулова М.М., Касимова Г.И.

Ташкентский государственный стоматологический институт

**NEFTNI KAYTALASH SANOATI ISHLAB CHIQRISHDAGI PARODONTAL
KASALLIKLARNING TARQASHI VA INTENSANLIGI.**

Bekjonova O.Ye., Adizov M.A.

Toshkent davlat stomatologiya instituti

**PREVALENCE AND INTENSITY OF PARODONTAL DISEASES IN WORKERS IN
THE OIL REFINING INDUSTRY.**

Bekzhanova O.Ye., Adizov M.A.

Tashkent State Dental Institute

АННОТАЦИЯ

Обследованы рабочие основных специальностей Бухарского нефтеперерабатывающего завода. У обследованного контингента тенденция увеличения распространённости более тяжёлого поражения пародонта при работе к контакте с производственными вредностями статистически установлена ($\chi^2 = 23,180$; $P \leq 0,01$).

Одновременно с распространённостью увеличивается и интенсивность поражения пародонта. При этом число секстантов с невысокими значениями поражения пародонта 0 (здоровый) и 1 (кровоточивость) у работников заводоуправления достоверно ($P \leq 0,05$) выше таковых у рабочих вредных специальностей; одновременно у рабочих вредных специальностей зарегистрировано достоверное ($P \leq 0,05$) увеличение числа секстантов, обозначающих тяжёлое поражение пародонта 2 (кровоточивость), 3 (карман 4-5 мм), 4 (карман более 6 мм) и X (отсутствующие) секстанты. Промышленные вредности и вредные факторы производственной среды могут быть одним из факторов риска заболеваний пародонта.

Ключевые слова: профессиональные вредности, нефтеперерабатывающая отрасль, гингивит, пародонтит, гигиена полости рта.

ABSTRACT